



**UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA ONA TILI
DARSLARIDA MURAKKAB XUSUSIYATGA EGA
MAVZULARNI O`QITISH USULLARI**

Tojiyeva Iroda Sadatovna,

*Xalqaro innovatsion universiteti "Pedagogika"
kafedrasi dotsenti*



Abduqodirova Sabina Mahmudjon qizi,
*Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika kafedrasi
o`qituvchisi*

**METHODS OF TEACHING COMPLEX TOPICS
IN MOTHER LANGUAGE LESSONS IN
GENERAL SCHOOLS**

Tojiyeva Iroda Sadatovna,

*Associate Professor, Department of "Pedagogy",
International Innovation University*

E-mail: tojivevairoda9@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18310290>

Abdukodirova Sabina Mahmudjonovna,
*Teacher of the Department of Pedagogy, International
Innovation University*



**МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ СЛОЖНЫХ ТЕМ
НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

Тоджиева Ирода Садатовна,

*доцент кафедры педагогики Международного
инновационного университета*

Абдукодирова Сабина Махмуджоновна,
*Преподаватель кафедры педагогики,
Международный инновационный университет*

E-mail:

sabinaabduqodirova04@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18310290>

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta`lim maktablarida ona tili darslarida murakkab xususiyatga ega mavzularni o`qitish usullari haqida masalalar qamrab olgan.

Kalit sozlar: Ona tili, ta`lim, tarbiya, umumta`lim maktablari, murakkab xususiyatga ega mavzular.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с методикой преподавания сложных тем на уроках родного языка в средних школах.

Ключевые слова: Родной язык, образование, воспитание, средние школы, сложные темы.

Abstract: This article covers issues related to teaching methods for complex topics in native language classes in secondary schools.

Keywords: Mother tongue, education, upbringing, secondary schools, complex topics.



KIRISH VA DOLZARBLIGI

Yurtimizning rivojlanishi uchun olib borilayotgan turli sohalardagi keng ko‘lamli ishlar uzluksiz ta‘lim tizimini yaratish, shu bilan birga, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxsni kamol toptirishda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan.

Maktabda ona tilining o‘qitilishi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan ana shu prinsipga tayanadi. Ona tili fanining maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki nutq va yozma savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, o‘z fikrini ravon bayon qilish hamda yozma usullarda to‘g‘ri, xatosiz, o‘rinli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘zbek tili qonun- qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimiz, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma‘naviyatimiz, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

- ✓ fanga doir nazariy bilimlarning qay darajada shakllanganligi;
- ✓ o‘zgalar fikrini, matn mazmunini anglash va so‘zlash malakasi;
- ✓ fikrni yozma shaklda to‘g‘ri va aniq, ravon bayon etish malakasi.

O‘quvchilarda ushbu ko‘rsatkichlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishi kerak. Fanni o‘qitishning bir qator vazifalari mavjud.

Ular:

- ✓ o‘quvchilarni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatish;
- ✓ fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
- ✓ so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
- ✓ fanning ahamiyatini singdirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi metodlardan foydalanishning ahamiyatini o‘rganar ekanmiz, Ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha K. Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev (Ona tili o‘qitish metodikasi), A. G‘ulomov (Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari) va boshqa metodik adabiyotlarda ona tilini egallash, ya‘ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.




MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dars jarayonida turli usullardan foydalanish ta'lim oluvchining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilarni ona tili darslarida mustaqil, kreativ fikrlashga o'rgatish uchun dars jarayoni qiziqarli, turli usullardan foydalangan holda tashkil etilishi zarur. Berilgan darsliklardagi grammatik qoidalarni chuqur egallash maqsadida ijodiy fikrlashni shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darslarini tashkil etishda "Fikrlarning tarmoqlanishi", "BBB", "FSMU", "VENN diagrammasi", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Raqmlar so'zlaganda", "Baliq skleti", "Yelpig'ich", "Bumerang", "Zakovat", "Ha yoki yo'q", "Zinama-zina", "Sinkveyn", "SWOT" tahlili kabi innovatsion, noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, bunday o'yinlar mavzularni o'quvchilarga oson va tushunarli berishning yo'llaridan biri hisoblanib, o'qituvchining yangi-yangi ta'limiy o'yinlarni darslarida qo'llashi, hatto o'zi ham shunday o'yinlarni o'ylab topishi mumkin. Zero biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.



Masalan, "Sintaksis"ni o'quvchilarga o'rgatishda, birinchi navbatda, "kesimgapning markazi" ekanligini bildirishdir. Mavzuni tushuntirishni kesimga xos *yozdi uxladik, keladilar, tekshiramiz* kabi so'zlarni shaxs-sonda tuslab, shaxsga ishora qiluvchi qo'shimchalarni topishdan boshlash muhim.

Masalan:

**Birlik**

- I shaxs yozdi+m
 II shaxs yozdi+ng
 III shaxs yozdi

Ko'plik

- I shaxs yozdi+k
 II shaxs yozdi+ngiz
 III shaxs yozdi (-lar)

Morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro munosabatda bo'lgan sohalar ekanligini tushuntirish lozim. Gap turlari: darak, so'roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan, kesimlarning qanday so'z turkumi orqali ifodalanishiga bog'liqligi o'rgatiladi. Masalan, "Kim birinchi?" o'yini berilgan topshiriqni tez va to'g'ri topish ko'nikmasini rivojlantirish orqali nazariy ma'lumotni yodda saqlab qolish imkonini beradi.

Topshiriq.

1. Sifatlar tarkibiga ko'ra qanday sifatlarga bo'linadi?
2. Sifatlar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?

**ESLANG!****Sifat so'z turkumi**

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va «qanday?», «qanaqa?» so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi.

Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va so'z yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.


So'z birikmasi



“So‘z birikmasi” biroz murakkab mavzuligi bilan ajralib turadi.

Ushbu mavzuni ta’lim oluvchilarga o‘rgatishda so‘z birikmalariga berilgan tasniflarni bilish muhim.

Masalan, so‘z birikmalari tobe qismning sintaktik vazifasiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga ega.



“Uyushiq bo‘laklari” mavzusi haqida gap ketganda, avvalo, so‘roq gaplar yordamida uyushiq bo‘lakli darak hamda undov gaplar hosil qilish, uyushiq egalar, uyushiq hollar, uyushiq to‘ldiruvchilar, uyushiq aniqlovchilarni matn tarkibidan topa olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

1-amaliy mashg‘ulot

“Tushunchalar tahlili” usuli

Bog‘imizdagi daraxtlarning barchasi: olma, nok, behi, shaftolilar gullab yotibdi.

Tushunchalar	Izohi
Uyushiq bo‘lak	olma, nok, behi, shaftolilar
Umumlashtiruvchi so‘z	barchasi
Qaysi bo‘lakning uyushganligi	ega

2-amaliy mashg‘ulot

1. Yulduzchalar markazidan o‘rin olgan hokim so‘zga tobe bo‘lgan uyushiq bo‘laklarni hosil qiling hamda ularni o‘z yulduzchasi qirralariga joylashtiring.

2. Ushbu uyushiq bo‘laklar ishtirokida “Mening yulduzim” mavzusida matn tuzing.



Morfologiya

Morfologiya grammatikaning bir qismi ekanligi barchaga ma'lum. Unda so'zning shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari va guruhlariga ajratilishi o'rganiladi. Morfologiyani o'qitishda, birinchi navbatda, so'zlarning tuzilishi, yasalishi hamda so'z turkumlariga bo'linishiga e'tibor qaratiladi.

Nostandart test

Bilimingizni berilgan nostandart test orqali sinab ko'ring. 4-ustundagi tushunchalar qaysi mavzuga oid ekanligini raqamlar orqali belgilang.

T/r	Mavzu	Javob	Mavzuga oid tushunchalar
1.	Morfologiya.		Hisob so'z, numerativ
2.	So'z turkumlari.		O'timli-o'timsizlik, sifatdosh
3.	Grammatik kategoriyalar.		O'zgarmas so'z, darajalanish
4.	Ot so'z turkumi.		"Ichi bo'sh so'z", ishora so'zlar
5.	Sifat so'z turkumi.		Undov, modal, taqlid
6.	Son so'z turkumi.		Vosita, atalganlik
7.	Fe'l so'z turkumi.		Ayiruv, ta'kid
8.	Ravish so'z turkumi.		Antroponim, zoonim
9.	Olmosh so'z turkumi.		Zidlov, biriktiruv
10.	Ko'makchi.		Grammatik shakl, grammatik ma'no
11.	Bog'lovchi.		O'zgalovchi kategoriya, nisbat kategoriyasi
12.	Yuklama.		Mustaqil, yordamchi
13.	Alohida so'zlar turkumi.		Asliy, nisbiy

Fe'l so'z turkumi

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda fe'llardan bo'lishsiz (va aksincha) fe'llar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan fe'llarning zamonini almashtirib qo'llash, kesimlarga shaxs-son va zamon qo'shimchalari qo'shish ishlari o'rganilganlarni o'quvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

6-sinfda fe'llarning lug'aviy shakllari va ma'no guruhlari o'rganiladi. "Fe'llarning umumiy xususiyatlari", "Fe'l nisbatlari", "Fe'lning vazifa shakllari", "Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari", "Fe'lning ma'noviy guruhlari", "Ko'makchi fe'llar", "Fe'llarning munosabat shakllari", "Fe'llarning zamon shakllari", "Mayl



shakllari”, “Shaxs-son shakllari” singari mavzularni o‘rganishda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini fe‘llar bilan oshirish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi. O‘quvchilarning fe‘llarga xos bo‘lgan xususiyatlarni to‘liq o‘zlashtirishlari uchun fe‘l- sinonimlar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Berilgan fe‘llarga sinonimlar topish (masalan, chopmoq, yugurmoq, g‘izillamoq, uchmoq), ma‘nosi tushunarli bo‘lmagan sinonim so‘zlarning ma‘nosini izohlash, har bir so‘z yordamida gaplar tuzish maqsadga muvofiq.

Masalan:

Bobur otasi tomon **chopdi**.

Qizcha onasiga qarab quchoq ochib **yugurdi**.

Berilgan matnni tahrir qilishda, takrorlangan fe‘llar o‘rniga ularning sinonimlarini qo‘llash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda o‘ta muhim sanaladi. Mavzuni o‘rganishda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini fe‘llar bilan oshirish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi. O‘quvchilarning fe‘llardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini o‘stirish uchun berilgan qo‘shimchalar yordamida fe‘llar hosil qilish, ko‘makchi fe‘llar berib, ular ishtirokidagi yetakchi+ko‘makchi fe‘llar tuzish, to‘liqsiz fe‘llarni shaxslar doirasida o‘zgartirishga oid namunalar topish yuzasidan guruhlarda bellashuvlar tashkil etish mumkin.

“Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan” o‘yini

Bu o‘yinda sinf ikki guruhga ajratiladi va 1-guruhga to‘liqsiz fe‘llarni shaxslar bo‘yicha o‘zgartirish,

2-guruhga esa ularing boshqa so‘zlar bilan birikishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Keyin topshiriq turi guruhlararo almashtiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruh ertak aytish huquqini (yoki o‘qituvchidan eshitishni) qo‘lga kiritadi. Chunki o‘yinning nomi shunga muvofiq qo‘yilgan va ertak eshitiladi (imkoniyat darajasida). Shu matndagi to‘liqsiz fe‘llar topiladi va izohlanadi.

Ot so‘z turkumi

O‘quvchilar uchun o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan nazariy bilimlardan biri qo‘shma otlar va ularning imlosi sanaladi.

Mavzuni o‘rganishda mavjud so‘z birikmalaridan joy nomlari tuzish, masalan, yetti suv – Yettisuv, yangi bog‘ – Yangibog‘, uch tepa – Uchtepa, qo‘shma so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirish – paxtagul – paxta guli, otbozor – ot bozori, molbozor-mol bozori, berilgan qo‘shma so‘zlar lug‘atini tuzish – gulbeor, Ko‘ksaroy kabi



ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish ushbu mavzuning yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning juft otlarni o'rganishlarida ham anchagina qiyinchilik tug'diradigan masalalar bor. Ulardan biri juft so'zlarni ular orasidagi ma'no munosabatlariga ko'ra uyadosh so'zlar: aka-uka, aka-uka, ota-ona, ko'z-quloq kabi ma'nodosh so'zlar: uy-joy, kuch-quvvat, baxt- saodat, qarama-qarshi ma'noli so'zlar: do'st-dushman, kecha-kunduz singari guruhlariga ajratish, faqat bitta tovushning o'zgarishi bilan takrorlanadigan bug'doy-mug'doy, choy-poy, osh-posh kabi so'zlarning ma'nosini sharhlash singari topshiriqlardan foydalansa bo'ladi.

Mavzuni o'rganishda mavjud so'z
birikmalaridan joy nomlari tuzish

yetti suv- Yettisuv
yangi bog'- Yangibog'
uch tepa- Uchtepa

qo'shma so'zlarni so'z
birikmalariga aylantirish

paxtagul- paxta guli
otbozor- ot bozori
molbozor- mol bozori

berilgan qo'shma so'zlar
lug'atini tuzish

gulbeor
Ko'ksaroy
molbozor

Kutiladigan natija shundan iboratki, ta'lim oluvchi ushbu ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish asnosida mavzuni to'liq o'zlashtiradi.

Sifat so'z turkumi

Sifat so'z turkumini o'qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma'lumotlarni o'rganish va sifat yasovchi qo'shimchalarni bilish o'quvchi nutqini kengaytiradi. Qo'shimchalar yordamida sifatlarning yasalishini o'rganish va uni nutqda qo'llay olish o'quvchining chiroyli so'zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.



Sifat so'z turkumini o'qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma'lumotlarni o'rganish va sifat yasovchi qo'shimchalarni bilish o'quvchi nutqini kengaytiradi.

Namuna uchun berilgan so'zlar:



chop
ertalab
ich
yoz
kuz
bahor
sez
ol

Shu soʻzlardan hosil qilingan sifatlar:

chopqir
ertalabki
ichki
yozgi
kuzgi
bahorgi
sezgir
olgʻir

Qoʻshimchalar yordamida bu kabi sifatning yasashini oʻrganish va uni nutqda qoʻllay olish oʻquvchining chiroyli soʻzlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

Leksikologiya

“Leksikologiya” boʻlimini oʻqitish juda katta taʼlimiy ahamiyatga ega. Mazkur boʻlimni oʻqitishning muhimligi shundaki, oʻquvchilarning asosiy birligi - soʻz haqidagi taʼlimot bilan tanishishadilar.

Oʻquvchilarduch keladigan dastlabki muammo soʻzning **oʻz** va **koʻchma** maʼnolaridir.

Oltin uzuk
Temir yoʻl
Yengil eshik

Oltin bosh
Temir intizom
Yengil taʼzim

- ✓ Soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnosiga koʻra guruhlariga ajratish;
- ✓ soʻzlarni oʻzaro qiyoslash asosida soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolariga taʼrif berish;
- ✓ berilgan soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnolarda qoʻllab gaplartuzish;
- ✓ badiiy matnlarni tahlil qilish;



✓ *so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab matn yaratish* singari ijodiy- amaliy ishlar o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ta'lim maskanlarida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jamiyat ilmiy darajasining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z biluv imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning savodxonlik ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi.

O'quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ona tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga oid masalalar bo'yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma'lumotlar yagona uslubiyotga bo'ysundirilgan tarzda ta'lim oluvchining ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Har bir xalqning ona tili o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodgamerossqoladigan asosiy vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent – 1995- yil “O'qituvchi” nashriyoti.
2. Abdurazzoqova D “Interfaol metodlar: nazariya, amaliyot, tajriba” Pedagoglar uchun qo'llanma. Toshkent – 2013 yil.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 456 b.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik) – Toshkent: Cho'lpon, 2013.
5. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.